



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



1-2-SINF O'QUVCHILARINI BADIY ASARGA O'QISHGA QIZIQISHLARINI OSHIRISH YO'LLARI

Zohida Sindarovna

zohidasulova6@gmail.com +998700123110

Ismoilova Maxliyo Do'sbekovna

Buxoro innovatsiyalar universiteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi II bosqich talabasi

ismoilovam284@gmail.com +998500103018

*“Ta'limning bosh maqsadi ta'lim oluvchining sifatlarini shakllantirish etmog'i ker
(A.S.Makarenko)*

Annotatsiya

Ushbu maqolaning qisqacha mazmuni shundan iboratki, u boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy ijodga qiziqishini oshirishga qaratilgan bo'lib, ularning bilimlarini turli yo'llar bilan rivojlantirishga yordam beradigan va “6x6x6” metodi orqali badiiy ijodga qiziqishlarini oshirishga yordam beradigan g'oyalarni o'z ichiga oladi.

Annatation

The brief content of this article is that it aims to increase the interest of elementary school students in artistic works, and it contains ideas that can contribute more to de veloping their knowledge in various ways and increasing their interest in artistic works through the "6x6x6" method.

Аннотация

Краткое содержание данной статьи заключается в том, что она направлена на повышение интереса учащихся начальной школы к художественному творчеству и содержит идеи, которые могут способствовать развитию их знаний различными способами и повышению их интереса к художественному творчеству с помощью метода «6x6x6».

Kalit so'zlar: *ishtiyoq, metodi, olish ko'nikmalarini, afzallik, kema, to'lqin, baliq, delfin, kit, akula, shakllantiradi, obyekt, metodlar, mashg'ulotlarda, boshlang'ich.*

Ключевые слова: *страсть, метод, навыки, преимущество, корабль, волна, рыба, дельфин, кит, акула, формы, объект, методы, обучение, новичок.*

Keywords: *passion, method, skills, advantage, ship, wave, fish, dolphin, whale, shark, shapes, object, methods, training, beginner.*

“Har kim bilim olish huquqiga ega.Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi.Maktab ishlari davlat nazoratida dir”.

(O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 41 -modda).




TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Boshlang'ich sinf – bu bola ta'limining eng muhim bosqichi bo'lib, aynan shu davrda o'quvchilar bilim olishning asosiy tamoyillarini o'rganadilar. Bu yoshda bolalar yangi ma'lumotlarni qiziqish bilan qabul qiladilar va o'rganish jarayoni ular uchun o'yin, tajriba qilish hamda izlanish orqali amalga oshadi.

Ammo bizni bir savol qiynaydi. Bu ham bo'lsa, boshlang'ich ya'ni 3-sinf bolalarini badiiy asarga bo'lgan qiziqishini qanday qilib oshirishimiz mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilimni asosan quyidagi yo'llar bilan o'zlashtiradilar:



🌟 Kuzatish orgali.

Bolalar tabiat, buyumlar va atrof-muhitni kuzatib, o'zlashtirganlarini nutq orqali ifodalaydilar.

🌟 Amaliy faoliyat orqali.

Rasm chizish, kesish-yopishtirish, tajribalar qilish, o'yinlar - bular bilimni mustahkamlaydi.

🌟 O'qituvchining tushuntirishi orgali.

Oddiy, hayotiy misollar orqali tushuntirilgan mavzular ularning xotirasida uzoqroq saqlanadi.

🌟 Savol-javob orqali.

Bu usul o'quvchilarning fikrlashini rivojlantiradi va bilimni mustahkamlaydi.

🌟 O'yinli metodlar orqali.

Topishmoqlar, didaktik o'yinlar, rolli o'yinlar, o'quvchining faolligini oshiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari juda faol, qiziquvchan va tez eslab qoluvchan bo'lishadi. Shu sababli darslar rang-barang, qiziqarli va ko'rgazmali bo'lishi ularning bilim o'zlashtirishiga katta ta'sir ko'rsatadi. To'g'ri tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchida o'qishga bo'lgan



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



ishtiyoni kuchaytiradi, mustaqil fikrlashni rivojlantiradi va keyingi bosqichlarda muvaffaqiyatli o'qishiga asos yaratadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy asarga bo'lgan qiziqishlarini oshirish uchun katta xizmat qiladigan metodlardan biri bu- "6x6x6" metodidan foydalansak maqsadga muvofiq bo'ladi.

"6x6x6" Metodi

Ushbu metod yordamida bir vaqtning o'zida 36 nafar o'quvchi muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma'lum topshiriq yoki masalani hal etadi. Shuningdek, guruhlarining har bir a'zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. "6x6x6" metodi asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotda har birida 6 nafari ishtirokchi bo'lgan 6 ta guruh o'qituvchi tomonidan o'rtaga tashlangan muammo(masala)ni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach o'qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakillangan guruhlarining har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo'ladi. Yangi shakillangan guruh a'zolari o'z jamoalariga avvalgi guruh tomonidan muammo(masala) yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar.

"6x6x6" metodining olish ko'nikmalarini afzallik jihatlari quyidagilar: Guruhlarining har bir a'zosini faol bo'lishga undaydi: ular tomonidan shaxsiy qarashlarning ifoda etilishini ta'minlaydi; guruhning boshqa a'zolarining fikrlarini tinglay olish ko'nikmalarini hosil qiladi.

Ilgari surilayotgan bir necha fikrni umumlashтира olish shuningdek, o'z fikrini himoya qilishga o'rgatadi.

Eng muhimi, mashg'ulot ishtirokchilarining har biri qisqa vaqt(20 daqiqa) mobaynida ham munozara qatnashchisi, ham tinglovchi, ham ma'ruzachi sifatida faoliyat olib boradi.

Ushbu metodni 5,6,7 va hatto 8 nafar o'quvchidan iborat bo'lgan bir necha guruhlarda ham qo'llash mumkin. Biroq yirik guruhlar o'rtasida "6x6x6" metodi qo'llanilganda vaqtni ko'paytirishga to'g'ri keladi. Chunki bunday mashg'ulotlarda munozara uchun ham, axbarot uchun ham birmuncha ko'p vaqt talab etiladi. So'z yuritilayotgan metod qo'llanilayotgan mashg'ulotlarda guruhlar tomonidan bir necha mavzu (muammo)ni muhokama qilish imkoniyati mavjud.

"6x6x6" metodidan ta'lim jarayonida foydalanish o'qituvchidan faollik, pedagogik mahorat, shuningdek, guruhlarini maqsadga muvofiq shakllantira olish layoqatiga ega bo'lishni talab etadi. Guruhlarining to'g'ri shakllantirilmasligi topshiriq yoki vazifalarning to'g'ri hal etilmasligiga sabab bo'lishi mumkin."6x6x6" metodi yordamida mashg'ulotlar quyidagi tartibda tashkil etiladi.

✓ O'qituvchi mashg'ulot boshlanishidan oldin 6 ta stol atrofida 6 tadan stul qo'yib chiqadi.

✓ O'quvchilar o'quvchi tomonidan 6 ta guruhga bo'linadilar. O'quvchilarni guruhlarni bo'lishda o'qituvchi quyidagicha yo'l tutishi mumkin: 6 ta stolning har biriga muayyan obyekt(masalan, kema, to'lqin, baliq, delfin, kit, akula) surati chizilgan lavhani qo'yib chiqadi. Mashg'ulot ishtirokchilariga kema, to'lqin, baliq, delfin, kit hamda akula surati



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



tasvirlangan (jami 36 ta) varoqchalardan birini olish taklif etiladi. Har bir o‘quvchi o‘zi tanlagan varoqchada tasvirlangan surat bilan nomlanuvchi stol atrofida qo‘yilgan stuldan joy egallaydi.

✓ O‘quvchilar joylashib olganlaridan so‘ng o‘qituvchi mashg‘ulot mavzusini e‘lon qiladi hamda guruhlariga muayyan topshiriqlarni beradi. Ma‘lum vaqt belgilanib, munozara jarayoni tashkil etiladi.

✓ O‘qituvchi guruhlarining faoliyatini kuzatib boradi, kerakli o‘rinlarda guruh a‘zolariga maslahatlar beradi, yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatadi hamda guruhlar tomonidan berilgan topshiriqlarning to‘g‘ri hal etilganligiga ishonch hosil qilganidan so‘ng guruhlardan munozaralarni yakunlashlarini so‘raydi.

✓ Munozara uchun belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, o‘qituvchi guruhlarini qaytadan shakllantiradi. Yangidan shakllangan har bir guruhda avvalgi 6 ta guruhning har biridan bir nafar vakil bo‘lishiga alohida e‘tibor qaratadi. O‘quvchilar o‘z o‘rinlarini almashtirib olgandan so‘ng belgilangan vaqt ichida guruh a‘zolari avvalgi guruhlariga topshirilgan vazifa va uning yechimi xususida guruhdoshlarga so‘zlab beradilar. Shu tartibda yangidan shakllangan guruh avvalgi guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosalar (topshiriq yechimlari) ni muhokama qiladilar va yakuniy xulosaga keladilar.

Xulosam shundan iboratki, 3-sinf o‘quvchilarida badiiy asarni o‘qishga qiziqishni oshirish ularning tasavvuri, nutqi va ma‘naviy dunyosini boyitadi. Dars jarayonida qiziqarli matnlar, ifodali o‘qish va ijodiy topshiriqlardan foydalanish bolalarda kitobga mehr uyg‘otadi. Badiiy asar qahramonlari orqali o‘quvchi yaxshilik va yomonlikni farqlashni o‘rganadi. O‘qishga qiziqqan bola mustaqil fikrlaydi va bilimga chanqoq bo‘lib voyaga yetadi. Shu sababli, boshlang‘ich sinfdanoq badiiy adabiyotga muhabbatni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari" tosh. O‘z. Res. Fanlar akademiyasi: Fan" nashriyoti 2006

2. Shavkat Mirziyoyev "Yangi O‘zbekistonda erkin va faravon yashaylik" Tosh. 2023

3. Shavkat Mirziyoyev "Niyati ulug‘ xalqning-ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi" Tosh. 2019

4. A. Xoliqov "Pedagogik mahorat" o‘quv qo‘llanma T.: "Iqtisod-moliya" 2010 M. X. To‘xtaxodjaye va boshqalar.

5. "O‘zbek pedagogikasi antologiyasi" Tosh-2010 K. Hoshimov, M. Ochilov va boshqalar